

О‘ЗBEK YOSHLARI NUTQIDAGI SOTSIOLEKTLAR

Meliboyeva Dilshoda Shukirillo qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

E.mail: dilshodajumanboyeva@gmail.com

+998 94 385 05 18

Annotatsiya: Mazkur maqola o‘zbek yoshlari nutqidagi keng iste‘molda bo‘lgan sotsiolektlar, ularning nutq jarayonidagi ahamiyati va ma‘no nozikliklarini o‘rganish, shuningdek, sotsiolektlarni guruhlashtirib tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Sotsiolingvistika, sotsiolekt, jargon, argo, sleng.

Abstract: This article is aimed at studying sociolects that are widely used in the speech of Uzbek youth, their significance and subtleties of meaning in the speech process, as well as grouping and analyzing sociolects.

Key words: Sociolinguistics, sociolect, jargon, argot, slang.

Аннотация: Данная статья направлена на изучение социолектов, широко используемых в речи узбекской молодежи, их значение и тонкости значения в речевом процессе, а также на группировку и анализ социолектов.

Ключевые слова: Социолингвистика, социолект, жаргон, арго, сленг.

Til va jamiyat. Bu ikki tushuncha doimo bir-biriga uzviy bog‘liq ravishda yashaydi. Tilsiz jamiyatni, jamiyatni esa tilsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki jamiyatning rivoji tilning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Tilning jamiyat bilan aloqadorligi tilshunoslikning sotsiolingvistika qismida o‘rganiladi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiati, jamiyat bilan aloqasi, jamiyatning tilga, tilning esa jamiyatga ta’siri, jamiyat orqali tilga kirib kelayotgan yangiliklarni o‘rganadigan sohasidir.

“Sotsiolingvistika” termini fanga birinchi marta 1952-yilda amerikalik sotsiolog G.Karri tomonidan kiritilgan. A.Keypelning fikricha, “sotsiolingvistika” terminining o‘zi o‘zini aniqlab keladi. O‘z nomidan ham ko‘rinib turganidek, sotsiolingvistika sotsiologiya va lingvistika kesishgan nuqtada yuzaga kelgan fan hisoblanadi [Sh.Usmonova, N.Bekmuxamedova, G.Iskandarova 2014, 4-5].

Bir so‘z bilan aytganda, sotsiolingvistika tilning ijtimoiy konteksdagi holatini o‘rganadi. Aynan mana shu ijtimoiy kontekstda til foydalanuvchilarining ijtimoiy tabiati namoyon bo‘ladi. Ya’ni jamiyatda turli qatlam vakillari yashaydi va ular tildan o‘zlarining ijtimoiy holatiga mos ravishda foydalanishadi. Biz esa ana shunday ijtimoiy qatlamni tashkil qiluvchi o‘zbek yoshlari nutqidagi ijtimoiy kommunikatsiyaga xizmat qiluvchi ayrim sotsiolektlarni tadqiq qilishga harakat qildik.

Sotsiolekt termini tilshunoslikka XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kirib kelgan. U sotsio va dialekt terminlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Bu termini rus tilidagi “социальный диалект”, ya’ni ijtimoiy dialekt birikmasining qisqargan shakli deyish mumkin.

Sotsiolekt – umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra birlashgan ayrim guruhlarining lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli [Sh.Usmonova, N.Bekmuxamedova, G.Iskandarova 2014, 15].

Adabiy tildan farqli o‘laroq, sotsiolektida qoidalardan chetga chiqish holatlari kuzatiladi. Umuman olganda, sotsiolektlar adabiy tilga bo‘ysunmaydigan til shaklidir. Yuqoridagi qoidadan ham ma’lumki, sotsiolektlar ommaga emas, balki umumiy xususiyatga ega bo‘lgan jamiyatdagi ba’zi bir guruhlarga oiddir.

Til shunday narsaki, uning yordamida kishilarning madaniyati, ma’naviyati haqida bilib olishimiz mumkin. Sotsiolektlar ham jamiyat a’zolarining verbal xulqi va ijtimoiy xarakteri haqida ma’lumot beradi. Ijtimoiy chegaralangan kishilarning kommunikativ ehtiyojlariga xizmat qiluvchi sotsiolektlar o‘z ichida bir necha turlarga bo‘linadi. Bular: argo, jargon, slenglardir.

Argo fransuzcha argot so‘zidan olingan bo‘lib, ma’lum ijtimoiy guruhlarining faqat o‘zlarigagina ayon, boshqalardan sir tutiladigan til shaklidir. Argolar qiziqishlari, mashg‘ulotlari, yoshlari bir xil bo‘lgan ma’lum tor doiradagi guruh vakillari qo‘llaydigan so‘zlardir [Abdurahmonova M, Malikova Z. 2022]. Ular umumiste’modagi so‘zni boshqa ma’noda qo‘llashadi. Otarchilar, o‘g‘rilar, savdogarlarning o‘z argolari mavjud. Masalan, otarchilar argosidan: yakan – pul, dah – yaxshi, danap – qiz bola; o‘g‘rilar argosidan: ligavi – militsiya, loy – pul; savdogarlar argosidan: sar yoki sarpiyoz – ming so‘m, kapara – olti ming so‘m [Xolmanova Z. 2019].

Jargon – biror ijtimoiy guruh vakillarining o‘z nutqi bilan ko‘pchilikdan ajralib turish maqsadida o‘zicha mazmun berib ishlatadigan so‘z va iboralari [Sh.Usmonova, N.Bekmuxamedova, G.Iskandarova 2014, 16]. Masalan, ko‘kat - AQSH dollari, limon – million.

Sleng – muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarining og‘zaki nutqida qo‘llaniladigan, emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘z va iboralar. [Sh.Usmonova, N.Bekmuxamedova, G.Iskandarova. 2014, 17]. Masalan, qaychi – chiroyli qiz, g‘isht – xunuk qiz.

Til barcha uchun baravar xizmat qiladi. Lekin undan har kim istaganicha, o‘z ehtiyojidan kelib chiqib foydalanadi. Tildagi birliklarni qay yo‘sinda ishlatish til egasiga bog‘liq. Bugungi kunda tobora taraqqiy etib borayotgan jamiyatda argo, jargon, slenglardan foydalanish kundan kunga ommalashmoqda. Ayniqsa, yoshlar nutqini kuzatadigan bo‘lsak, biz bilgan va bilmagan sotsiolektlar talaygina. Quyida ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

O'zbek yoshlari nutqida turli vaziyatlarga mos sotsiolektlar uchraydi. Ularni ma'lum bir guruhlariga bo'lib, tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

I. Gapirovchilarning jinsiga:

1. Qichiq narsa – o'g'il bolalar tomonidan chiroyli qizlarga nisbatan ishlatiladi.
2. Ot – qomatli qizlarga, ayollarga nisbatan qo'llaniladi.
3. Qaychi – chiroyli qiz.
4. G'isht – xunuk qiz.
5. Krasavitsa – juda chiroyli, go'zal qizlarga nisbatan.
6. Krutoy – o'ziga qarab chiroyli kiyinib yuradigan kelishgan yigitlarga nisbatan qizlar tomonidan qo'llanadi.
7. Shkaf – mushakdor yigitlarni qizlar shunday deyishadi.
8. Supurgi – ayolsifat erkaklarni ayollar shunday atashadi.

II. Ma'no ko'lami jihatidan:

1. Ijobiy ma'nodagi sotsiolektlar:

Ichak - yaqin do'st, qadrdon.

Cho'tki - hammasi yaxshi, zo'r degan ma'noda.

Daxshat – juda zo'r.

Chiki-chiki – hammasi joyida, yaxshi.

Kayfiyat besh – kayfiyat a'lo.

Gul, shakar, stilist sotsiolektlari nozik tabiatli kishilarga nisbatan ishlatiladi.

2. Salbiy ma'nodagi:

Ot qomatli ayollarga nisbatan salbiy ma'noda qo'llanadi.

G geylarga nisbatan haqorat ma'nosida.

Jo'jaxo'roz salga qizishib ketaveradigan yigitlarga nisbatan.

III. Xarakter xususiyatiga ko'ra:

Dux – qo'rqqoq odamlarga nisbatan "duxsan-a" deyishadi.

Chumo' – ahmoq, tentak ma'nosida odamlarga nisbatan qo'llanadi.

Kuchuk – 1) qo'lidan bir ish kelmaydigan, uni hech kim mensimaydigan erkaklarga nisbatan; 2) kuchukday ichmoq - bo'kiguday bo'lib ichmoq.

Beton – gap ta'sir qilmaydigan kishilarga nisbatan.

Sandiq - yeb to'yamas odam.

Amerika – hech narsani farqi yo'q, beg'am inson.

Vatan - sodiq kishi.

Suzma - suvi chiqqan, sekin harakat qiladigan odam.

Qozoq - g'alcha odam.

Uchar - epchil, ishni ko'zini biladigan.

Shrup - gapning qayoqqa ketayotganini bilmaydigan tentaksifat ma'nosida.

Rezinka – ezma.

Lag'mon - bitta gapni cho'zaveradigan odam.

Latta - suvi chiqqan odam.

Layli – xayolparast.

Terpila, kozyol – chaqmachaqaqar.

Taxta – qo‘pol.

Sumsik – ochko‘z.

Botanik – aqlli, ko‘p kitob o‘qigan kishi.

Skleroz – xotirasi past.

Toshbaqa – imillab harakat qiladigan odam.

Laycha – har doim kimgadir ergashib yuradigan kishi.

IV. Tashqi ko‘rinishiga:

Krasapchik chiroyli, kelishgan odamlarga nisbatan.

Shvabra - novcha va oriqa odam.

Shlanka, layli, straus, jirafa – bo‘yi baland kishi.

Shuningdek, taksi haydovchilari tilida quyidagi sotsiolektlarni uchratishimiz mumkin:

01 – mast holda mashina havdovchi kishi.

Bodring – ichki ishlar xodimi. Bunda aynan rang jihatdan olingan. Sababi bodring ham, ichki ishlar xodimlarining kiyimlari ham yashil rangda.

Cobalt, Nexia 3, uch oyoq radarni bildiradi.

Bundan tashqari, quyidagi sotsiolektlar ham o‘zbek yoshlari nutqida keng foydalanilmoqda:

1. Toy-toy - kichkina o‘g‘il bolalar.

2. Sharoit - ShareIt dasturini bugungi kun yoshlari shunday deyishadi.

3. Brat - ko‘cha yoshlari nutqida aka

4. Bratan - ko‘cha yoshlari nutqida aka

5. Bratishka - ko‘cha yoshlari nutqida uka

6. Problema - muammo.

7. Karochche - shunday qilib ma‘nosida.

8. Sostav - guruh. Yoshlar 3-4 kishidan iborat guruhlarga ajralib, bizni “sostav” deyishadi.

9. Taaak - xo‘sh.

10. Soqqa – pul.

11. Otrabotka - qayta topshirish (talabalar tilida).

12. Zelyoniy - farqi yo‘q.

13. Shpion - ayg‘oqchi.

14. Sigir – yoqtirgan qiziga ko‘p pul sarflab yuradigan yigitlar.

15. Shapka - pora

16. Siyqa – mijg‘ov.

17. Zik - qamoqdan chiqqan odam.

18. Kalla – aytilgan gapni sekin tushunadigan odam.

19. Oq kaptar - yigit va qiz o'rtasida xat tashuvchi insonlarga nisbatan qo'llanadi.
20. Bodroq - kechqurun uyqudan uyg'onvoladigan odam.
21. Oyxon - Iphone telefoni.
22. Kal – AQSH dollari.
23. Chistiy qilib qo'ymoq - toza qilib qo'ymoq.
24. Yeb qo'ymoq - qovun tushirmoq.
25. Yorib tashlamoq - biror ishni haddi a'losida qoyillatib bajarmoq.
26. Kiyib tashlamoq - mensimasdan ustidan kulmoq.
28. Qiyib tashlamoq - biror ishni juda yaxshi bajarmoq. Shuningdek, biror vaziyatda qoyillatib gap gapirmoq.
29. Shilib olmoq - biror narsani, misol uchun, pulning hammasini olib qo'ymoq.
30. Uyquni urmoq - uxlamoq.
31. Portichka izlamoq - biror vaziyatdan qochishga urinmoq.
32. Chaqmoq - biror narsani tushunmoq
33. Tepmoq - biror narsani tushunmoq
34. Parnikda katta bo'lganmisan - nozik odamlarga nisbatan qo'llaniladi.
35. Parot qilmoq - qovun tushirmoq
36. Yirtib tashlamoq - biror ishni qoyillatib bajarmoq
37. Tupikka tiqmoq – noqulay vaziyatga solmoq.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jamiyatdagi rivojlanishlar, yangiliklarning katta qismi tilimizda aks etadi. Bulardan esa jamiyat a'zolari o'zlarining ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda foydalanishadi. Kommunikativ ehtiyojlarini o'zlari xohlagan yo'l bilan qondirishadi. Tilimizning bir qismini tashkil qiluvchi sotsiolektlar esa ulardan foydalanayotgan kishilarning ijtimoiy mavqeyidan, madaniyatidan darak beradi. Bir so'z bilan aytganda, sotsiolektlar verbal xulq va ijtmoiy ahvolning muvofiqligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] Sh.Usmonova, N.Bekmuxamedova, G.Iskandarova. Sotsiolingvistika.- Toshkent.: Universitet, 2014. 4-17-b
- [2] Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi.- Toshkent, 2019.
- [3] Abdurahmonova M, Malikova Z. O'zbek tilida sotsiolekt, 2022.